

KASB HUNARNING INSON HAYOTIDA TUTGAN O'RNI



Abstract:

Ushbu maqola Kasb Hunarning hozirgi kunda inson hayotida qay darajada muhim ahamiyatga ega ekanligi va hunar orqali yutuqlarga erishish sir sinoatlari yoritib beriladi, hamda yoshlarimizni ayniqsa xotin-qizlarimizni turli jinoyat va yomon illatlardan saqlash uchun hunarga yo'naltirish u.n tavsiyalar beriladi

Key words:

Kasb
Hunar, inson, mexr
,ğayrat, ahamiyat, im
koniya, yoshlar.

Author of the article:

**Normuradova Go'zal
Uzoqboyevna**

Workspace (Education subject)

**Surxandaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani
BARKAMOL AVLOD bolalar maktabi
Floristika va fauna to'garagi rahbari**

Kirish: Kasb tanlash inson hayotida judayam katta ahamiyatga egadir. Hunar esa insonga eng yaxshi do'st eng yaxshi hamrohdir zero hunarli kishi xor bo'lmas! Hunar hunardan rizq unar.

Asosiy qism: Azizlarim inson Umir yo'llarining qay darajada yorqin chiroyli bo'lishida Kasb hunar judayam muhim o'rin tutadi. Nima uchun deysizmi - eng avvalo tanlayotgan kasbimiz bizning faxrimiz, daromad manbaimiz va umrimiz davomida eng ko'p vaqtimizni sarflaydigan faoliyatdir. Shuning uchun ham biz kasb tanlashda shu soha haqiqatdan biz orzu qilgan kasbmi, haqiqatdan shu kasbni egallab yuksala olamizmi shu kasbimizni sevib energiyaga to'lib elimizga xizmat qilaolamizmi yaxshilab o'ylab ko'rishimiz kerak. Misol uchun biz ota onamiz shifokor bo'lishimizni istashdi lekin biz o'qituvchi bo'lishni hohlaymiz ularni hafa qilmaslik uchun rozi bo'lib shifokorlikka o'qidik tugattik ammo bu sohada hech kimga yordam bera olmasak bu kasbimizdan kimga nima naf o'zimiz ham doim norozi kayfiyatda bo'lishimizga olib keladi. Shuning uchun ham kasb tanlashda o'zimizni fikrimiz muhim va ahamiyatli hisoblanadi. Bizning tanlovimiz kelajagimizni porlog'ligini belgilaydi. Doim biz izlanishda bo'lishingiz kerak

Har yili o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha kitoblar nashr qilib boriladi. Ularda hattoki maktab o'quvchilariga tanish bo'lmagan kasblar bilan ham tanishish mumkin. Ehtimol, ulardan biri sizning tanlovingiz bo'lishi mumkin. Inson yoqtirmagan ishi bilan butun hayot davomida shug'ullansa, o'zini baxsiz his qiladi. Istaklaringiz va hayotdagi maqsadlaringizdan kelib chiqqan holda qalbingizga quloq solib qaror qabul qilishingiz har tomonlama yaxshi. Agar kishi o'z sevgan kasbida ishlayotgan bo'lsa, u hech qachon har ertalab o'zini ishga ketayapman deb hisoblamaydi. O'z sevgan kasbi bilan shug'ullanish kishiga zavq, xursandchilik, shijoat, rag'bat hamda ma'naviy ozuqa beradi. O'zi yoqtirgan ishini qilayotgan kishi vaqt qanchalar tez o'tib ketganligini sezmay qoladi, u hech qachon bajarayotgan ishidan charchamaydi. Albatta bunda inson o'zi qiziqqan sohada ta'lim olib aynan ushbu sohada ishlashga harakat qilishi, o'z sevgan kasbida muvaffaqiyatga erishishga harakat qilishdan hech qachon to'xtamasligi kerak. Hunar inson bezagidir, bejizga ota bobolarimiz kishiga yetmish hunar oz deyishmagan bu so'z zamirida olam-olam ma'no yotadi.

Xulosa:Hohlardimki bundanam ko'p insonlarga yordam berib hunar egallashiga hissa qo'shsam.Hunarmand yoshlarimizga prezidentimiz tomonidan judayam ko'p imtiyozlar yaratilgan.Bu imkoniyatlardan unumli foydalanishni barchaga tafsiya qilaman.o'zim ham dastlab Hunar o'rgandim hunarmandlar uyushmasiga imtiyozli ravishda azo bo'ldim va o'z biznesimni boshlaganman hunarmandlar uyushmasiga a'zo bo'lishim bn davlat solig'idan imtiyozli ozod qilindim.Shunday sharoitlar qulayliklar yaratib bergan yurtboshimga rahmat aytaman va yoshlarga ham hunarli bo'lib yuksalishlarini maslahat beraman hammasi o'z qo'limizda faqat ozgina harakat qiziqish talab qilinadi.Yurtimizdagi barcha yoshlarni hunar hunar o'rganishga chorlab qolaman va bu bilan nafaqat bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish balki har hil jinoyat va yomon odatlardan va har-hil diniy oqimlarga qo'shilib qolishni oldini olgan bo'lardik.Beshikdan qabirgacha ilm izla!

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1)<https://cyberleninka.ru>
- 2)profnavigator.uz..
- 3)kun.uz

Hunar insonga eng yaqin do'st eng yaxshi hamrohdr. Ayniqsa hozirgi kunda hunar o'rganishni ko'pgina foydali tomonlari bor. Agar biz ustozlar yosh avlodni bo'sh vaqtlarini hunar o'rganishga jalb qilsak ularni ko'plab yomon illatlar va jinoyatlar qilishligini oldini olgan bo'lamiz. Hozirgi kunda yoshlarimizni qiziqishlarini hisobga olib har bir viloyatda tumanda barkamol avlod bolalar maktablari faoliyat olib boradi. Asosan u maktabda o'quvchilarni bo'sh vaqtini hisobga olib turli hil to'garaklar tashkil etilgan jumladan Tikuvchilik, To'quvchilik, haykaltaroshlik, rassomlik, va hunarmandchilik yo'nalishlari mavjud. Meni yo'nalishim Floristika amaliy bezak san'ati turli xil tabiiy sunniy gullardan bezaklar va sovg'alar yasashni o'rgataman. Eng yaxshi tarafi shundaki bu hunarni egallagan inson bemaol o'z ehtiyojlari uchun o'zi mablag' topa oladi hozirgi kunda gullarga talab yanada kuchaygan. Hunar bo'lsa qo'lingda non topilar yo'lingda degan maqol bejizgamas hozirda 40ga yaqin shogird qizlarim bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazib ota onalariga moddiy taraflama ancha ko'mak berolishyapti. Hunar bizni hayotimizni yaxshi taraflarga o'zgartirishga va yashashga bo'lgan ishtiyoqingizni oshirishga juda katta yordam beradi. Abu Ali ibn Sinoning mehnatsevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, u har bir bolani biror hunarga o'rgatmoq shart, deydi. Yosh yigit biror hunarni o'rgansa, uni hayotga tatbiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani ta'minlaydigan bo'lsagina otasi uni uylantirib qo'ymoqi lozim, deb hisoblaydi.

Kasbing sening faxringdir
Izlanishdan to'xtama,
Izla imkoniyat ko'pdir
Loqayd bo'lib yashama.

Hunar o'rgangin do'stim
Bo'lmaydi kamu- ko'sting
Bejizgamas bir maqol
Intilganga- tole yor

Mustaqil yurt farzandisan
Shuning o'zi buyuk baxt
Imkoniyatlar yaratgan
Yurtboshimizga rahmat

She'r muallifi Normuradova Go'zal Uzoqboyevna
"O'z ijodimdan"

Bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosat ta'lim tizimi samarali tashkil etilmoqda. Xususan, Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Yoshlar va xotin-qizlarning bandligini ta'minlash" ga judayam katta etibor qaratilgan. Hozirda umumta'lim maktablarida kasbga o'qitishning yangi tizimini joriy etilgan, bundan tashqari, ko'plab o'qitish maskani va qisqa muddatli kasb-hunarga o'qitish kurslari tashkil etilgan. Buning uchun zarur shart-sharoitlar yaratilib berilmoqda. Quvonarlisi shundaki ko'plab hududlarda ochilgan MANO MARKAZlarda hunarning turli yunalishlari boyicha bilimlar mutlaqo tekin berib borilyapti va kurs oxirida sertifikatlar bn taqdirlyapti. Shunday imkoniyatlardan foydalangan holda ko'p xotin qizlarimiz bandligi taminlanyapti. Shunday qilib, kasb tanlashning o'zi ham bir mashaqqat sanalar ekan. Aynan, shaxs shakllanishi uchun ham kasbning ahamiyati juda ham katta. Inson o'z kasbi bilan shakllanib borar ekan, unga kelajakda ham o'z maqsadlari yo'lida xizmat qilishi kerak. Inson o'z kasbini sevsagina, shu kasbga mas'uliyat bilan yondasha olsa, halol mehnat qilsa yosharadi, rivojlanadi, har jabhada shakllanadi. Hattoki, kelajak avlodga meros kabi o'tishi, ularga ham kasbiy shakllanishida asos bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Kasbing sening faxringdir!